Moxinur Qurbonova Abdusoli qizi

FarDU o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi

katta o‘qituvchisi,

filologiya fanlari bo‘yicha falsfa doktori (PhD)

MUALLIF IXTIROSI – OKKAZIONAL O‘XSHATISHLAR XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI IJODKORLARI USLUBINING O‘ZIGA XOSLIGI SIFATIDA

Annotatsiya: maqolada milliy uyg‘onish davri ijodkorlari – jadidlar asarlarida okkazional o‘xshatishlar, ularning asar badiiyatini ta’minlashdagi o‘ziga xos o‘rni, ijodkor uslubining o‘ziga xosligi sifatida namoyon bo‘lishi aks etadi.

Kalit so‘zlar: Charvi yegan mushukday, ko‘k qarg‘aning bolasidek, xususiy-muallif o‘xshatishlari, jola, mahbub, yor.

Kirish.

O‘xshatishning har qanday turida ham obrazlilik mavjud. Zero, bir predmetning biror belgi asosida ikkinchisiga o‘xshatilishining o‘zi obrazlilikning belgisidir. Biroq obrazlilik darajasining kuchliligi, badiiy serbo‘yoqliligi jihatidan murakkab belgi asosida vujudga keladigan badiiy o‘xshatishlar alohida ajralib turadi [1]. Masalan, Bu kecha **go‘yo bolalarning hayit kechalaridek**, ko‘nglim o‘ynab-o‘ynab qolipidan yaqinki chiqib ketsa (Hamza, “Maysaraning ishi”).

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

“Yalang‘och badani misdek kuyib, yomg‘ur kabi oqayotqon teri ishtonig‘a oqib tushmakda, ishton esa suvg‘a solg‘ondek terga bo‘kkan edi. Buning hozirg‘i ko‘rinishi **hindilarning o‘luk yoqaturg‘on go‘rkovlari(ni) xotirlatmoqda edi.** (Abdulla Qodiriy. “Quyosh bilan ham kurashaman” hikoyasi). Qodiriy bu misolda issiqda dalada musobaqada bellashgan kolxozchi Badalning holatini hindlarning o‘lik yoqadigan go‘rkoviga o‘xshatmoqda.

O‘xshatishlar badiiy adabiyot tilini bezashda eng qimmatli, kerakli vositalardan biridir. O‘xshatishlar ifodalanayotgan fikrning ta’sirchanligini yanada oshiradi. Masalan, Poshshooyim: **Charvi yegan mushukday** ko‘zlari yiltillamay, o‘lsin, yalmog‘izning (Hamza, “Boy ila xizmatchi”). Bu o‘xshatish orqali Poshshooyimning qaynonasiga nisbatan munosabatini darrov sezish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

”O‘xshatishlardan eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazliligini ta’minlashda foydalanib kelinadi. Bu muhim va keng qo‘llanuvchi vosita tilimizda xalqimizning tarixiy-madaniy tajribalari, badiiy tasavvurlarning natijasi sifatida yuzaga kelgan bo‘lsa, badiiy asarda so‘z ustasining kuzatuvchan ziyrak nigohi va teran badiiy didining mahsuli sifatida yuzaga keladi” [2]. Masalan, Xolmat

(o‘zicha): Endi qozi domla G‘ofirning ko‘zida satta yuztalikdan, **ko‘k qarg‘aning bolasidek** uchirma qilib, uni tuzoqqa ilintirmoqchi (Hamza, “Boy ila xizmatchi”).

Tilshunos olim M.Yo‘ldoshev aynan shunday o‘xshatish turini “xususiy-muallif o‘xshatishlari” atamasi bilan ataydi: “Xususiy-muallif o‘xshatishlari yozuvchining o‘z nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy tahayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o‘xshatishlaridir. Bunday o‘xshatishlarda originallik, obrazlilik, ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo‘ladi. Masalan, “Yurtning vajohati buzuq, taqsir. Gap ko‘tarmay qoldi. **Asad oyida ro‘za tutgan bangiga o‘xshaydi, taqsir [2].** Bu misol orqali ham Cho‘lponning so‘z qo‘llash mahoratida usta ekanligini fahmlashimiz mumkin.

Tahlil va natijalar.

Xonzoda: Qarimay ado bo‘lgur, Maston. Arslonni kesak otib yengmoqchimisan? Xuv **muzlab, g‘ujanak bo‘lib yotgan chigirtkaga o‘xshamay** o‘lgur (Hamza, “Boy ila xizmatchi”).

Adib bu o‘xshatish orqali Xonzodaning salbiy xarakterini ochib bermoqchi bo‘lgan.

Muallif tomonidan bitta qahramonning nutqida bir necha okkazional o‘xshatishlar keltiriladi: Mulla Do‘st: Ulamo degan peslardan ham ixlosim **achitma go‘jadek** qaytdi-da. Shayton bularning oldida qip-qizil valiyullodir. Ahvol shu-yu, tag‘in bularning xalq ichiga kirsa **burunning suvidek** ko‘z yoshini oqizib (yig‘lamsirab): “Egamdan kimki qo‘rqmas, ul sazovori jahannamdur” deb amri ma’rufni **navro‘zning yomg‘iridek shilt-shilt qilvoradi.** Bilmayman, o‘sha jahannamga o‘zlaridan boshqa qaysi maxluqlar borar ekan (Hamza, “Maysaraning ishi”).

Yuqoridagi misolda Mulla Do‘stning soxta ulamolarga bo‘lgan nafratining kuchliligi okkazional o‘xshatishlar orqali ochib berilgan.

“Ko‘rinadiki, metaforalarning ham, epitetlarning ham xuddi o‘xshatishlar kabi, turg‘un va erkin o‘xshatishlari farqlanadi. Ularning turg‘unlari tilda barqarorlashgan, umumtilga xoslashgan, erkinlari esa nutqqa xos bo‘lib, har bir nutq jarayonida yangidan yaratiladi” [3].

Payt poylab dushmanim qo‘ydi yo‘limga loytuzoq,

Guldirab chalqancha tushdim, toyilib, bo‘ldim cho‘loq.

Sudralib qolg‘on kunimda bo‘lmadi qo‘ltiqtayoq.

Iltimosimdan zerikding, do‘stim, bo‘lding yiroq,

Jola yanglig‘ qo‘z yoshim har qatrasi bir nosqovoq (So‘fizoda).

Jola [fr. shudring; yomg‘ir, ko‘z yoshi] Ko‘z yoshi. Oqizma ko‘zingdan qonli jolangni, Umri uzun bo‘lsin ko‘z-u qorangni. “Ravshan” (O‘TIL, II, 101).

Bu parchada ikkita o‘xshatish mavjud. Avvalo ko‘z yoshi yomg‘irga, keyin esa yomg‘irdek yog‘ayotgan ko‘z yoshining har qatrasi kattaligidan nosqovoqqa o‘xshatilmoqda.

Ro‘baro‘mizda o‘n to‘rt kechalik oyning bizning majlisimizga elektrik kibi oshiq va ziyo berishi, bir tarafdan tog‘larning ustida cho‘kub yotgan qorlarning ikki tarafdagi ko‘kmak

daraxtlarning orasida namoyon bo‘lishi, ko‘k baxmalga o‘ralishi mahbub kibi ko‘rinur edi (Abdulla Avloniy).

Yuqoridagi misolda o‘n to‘rt kechalik oyning elektrik kibi ziyo berishi, tog‘larning ustida cho‘kub yotgan qorlarning ikki tarafdagi ko‘kmak daraxtlarning orasida namoyon bo‘lishi, ko‘k baxmalga o‘ralishi **mahbubga,** ya’ni **yorga** o‘xshatilgan.

Avloniy otashsiz nigohni hidsiz chechakka, foydasiz so‘zni asalarilar orasida yurgan qovoqarining g‘o‘ng‘illashiga o‘xshatgan:

So‘z bilmas lablarni mumkinmas sevmak;

Otashsiz nigoh-u hidsiz bir chechak! (Abdulla Avloniy)

Agar so‘z aql va hikmatga muvofiq bo‘lub, o‘ziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqadurgon bo‘lmasa, asalarilar orasida g‘o‘ng‘illab yurgan qovoqari kabi quruq g‘o‘ng‘illamoq, faqat bosh og‘rig‘idan boshqa narsa emasdir. Boshimizga keladurgon qattiq kulfatlarning ko‘pi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun “ko‘p o‘yla, oz so‘yla” demishlar (Abdulla Avloniy).

Abdulla Avloniy qalamiga doir ana shunday original o‘xshatishlardan yana biri bu millatning badanidan doimo qon oldirib turadigan bemorga o‘xshatilishidir: Marizing bir tarfdan, bir tarafdan xorsan – millat, Badandan doimo qon oldurar bemorsan – millat.

Xulosa va takliflar.

Milliy uyg‘onish davriga oid asarlarda qo‘llangan okkazional birliklar semantik-uslubiy jihatdan shaxsning kasb-korini ifodalovchi, narsa-buyum ma’nosini ifodalovchi, o‘rin-joy ma’nosini ifodalovchi, his-tuyg‘uni, mavhum tushunchalarni ifodalovchi, predmet va harakat belgisini ifodalovchi, harakat va holat ma’nosini ifodalovchi leksik okkazional birliklar kabi turlarga bo‘linadi. Shuningdek, ilmiy atama sifatida qo‘llangan okkazional birliklar ham mavjud. Garchi bu terminlar keyinchalik o‘zbek tili uchun me’yor sifatida qabul qilingan bo‘lmasa-da, ularning yaratilishi XX asarning boshlarida o‘zbek tilining ilmiy adabiy til darajasida rivojlanishiga ma’lum darajada hissa qo‘shdi.

Bu davr ijodkorlari o‘z asarlarida okkazional badiiy vositalardan ham mohirona foydalanganlar. Okkazional metaforalar, okkazional o‘xshatishlar asarning ta’sirchanligini, jozibasini yanada oshirish uchun xizmat qiladi. Okkazional metaforalar so‘z, so‘z birikmasi, gap, mikromatn shaklida qo‘llangan. Shuningdek, bu davrdagi asarlarda maqol, iboralarning xususiy mualliflik variantlarini ham uchratishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Умуркулов Б. Ўзбек бадиий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари: Филол. фанлари докт. (DSc) дисс. –Т.

2. Йўлдошев М.Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати. : Филол. фанлари номзоди … дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 99.

3. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент. 2017. – Б.149.